“Qo‘ng‘irot soda zavodi” MCHJ QK direktori Mustafayev Jahongir “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi" faxriy unvoni bilan taqdirlandi

// 09 September 2024 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qo-ng-irot-soda-zavodi-mchj-qk-direktori-mustafayev-jahongir



O‘zbekiston Respublikasi davlat Mustaqilligining o‘ttiz uch yilligi munosabati bilan taqdirlash haqidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumi Qarori bilan “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MCHJ QK direktori Mustafayev Jahongir Ibodullayevich “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi" faxriy unvoni bilan taqdirlandi. Ta’kidlash joiz, qutlug‘ bayram arafasida e’tirof etilgan yurtdoshlarimiz orasida kimyo sanoati xodimlari ham borligi quvonarli holat.

“O‘zkimyosanoat” AJ jamoasi Jahongir Ibodullayevichni faxriy unvon bilan tabriklaydi va kelgusi ishlariga ulkan zafarlar tilaydi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati